

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
2. ИИHK 2.07.04-2019 Қишлоқ хўжалиги корхоналари худудларини меъморий режалаштириш ва ташкил қилиш. Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги. – Тошкент: 2020.
3. Qurbonov Sh.B., Uzakbaev K.K., Atabayev A.A. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga xizmat ko'rsatish sohasini hududiy tashkil etish masalalari. // «Fan va jamiyat», – Nukus: 2024. 39-42-b.
4. Узакбаев К. К. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳаларини худудий ташкиллаштириш. // Educational Research in Universal Sciences. 2023. Т. 2. №. 14. 233-240-б..

REZYUME. Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimining tashkillashtirilishi, hududiy joylashuv xususiyatlari ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрыта организация системы дошкольного образования в Республике Каракалпакстан, особенности территориального размещения.

SUMMARY. The article describes the organization and distribution of the preschool education system in the Republic of Karakalpakstan.

QASHQADARYO VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI RIVOJLANISHINING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI

B.A.Yaxshiboyev – *mustaqil izlanuvchi*

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Qashqadaryo viloyati, meva-sabzavotchilik, klaster, hududiy xususiyatlar, ixtisoslashuv, iqtisodiy geografik omillar, infratuzilma, qishloq xo'jaligi, resurs salohiyati, agroklaster.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, плодовоовощеводство, кластер, территориальные особенности, специализация, экономико-географические факторы, инфраструктура, сельское хозяйство, ресурсный потенциал, агрокластер.

Key words: Kashkadarya region, fruit and vegetable, cluster, territorial characteristics, specialization, economic geographical factors, infrastructure, agriculture, resource potential, agrocluster.

Kirish. Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishda klasterlashuv tizimi keng qo'llanilmoqda. Meva-sabzavotchilik sohasida klaster yondashuvi orqali ishlab chiqaruvchilar, logistika tarmoqlari, qayta ishlovchi korxonalar va eksportchilar o'rtasida uzviy bog'liqlik yaratilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Turkiya, AQSh va Xitoyda bu tizim orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport salohiyati va mahsulot sifatini oshirishga erishilgan [10]. Bunda hududlarning agroiqtsodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish asosida klasterlar hududiy ixtisoslashtirilgan tarzda joylashtirilmoqda.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida meva-sabzavotchilik yo'nalishi mamlakat eksporti va oziq-ovqat xavfsizligi tizimida muhim o'rinni egallamoqda. 2020-yildan boshlab hukumat tomonidan agroklasterlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga yer ajratish, infratuzilma bilan ta'minlash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1, 2]. Shunga muvofiq holda, viloyatlarda iqlim va yer resurslariga mos ravishda ixtisoslashtirilgan klasterlar shakllanmoqda.

Qashqadaryo viloyati meva-sabzavot yetishtirish salohiyatiga ega bo'lgan yirik hududlardan biridir. Aholining ko'pligi, mehnat resurslarining yetarli bo'lishi, tog' etaklaridagi unumdor sug'oriladigan yerlarning mavjudligi, suv resurslarining nisbatan barqarorligi viloyatda bu soha rivoji uchun muhim omil bo'lib xizmat

qilmoqda. Ayni vaqtda, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Qamashi kabi tumanlarda meva-sabzavotchilik klasterlari shakllanmoqda. Biroq, klasterlar hududiy joylashuvi, ularning infratuzilmaviy ta'minoti va iqtisodiy samaradorligi jihatidan keskin farqlanmoqda.

Metodologiya. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, meva-sabzavotchilik klasterlarini hududiy rivojlantirishda geografik, tabiiy, iqtisodiy va demografik omillar o'zaro uyg'unlashgan holda hisobga olinishi zarur. Bu esa, viloyatning har bir tumanidagi resurs va imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, klasterlarni mantiqan asoslangan holda joylashtirish hamda ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlashni talab etadi. Shu boisdan, Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavotchilik klasterlarining hududiy xususiyatlarini o'rganish amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Meva-sabzavotchilik klasterlari – bu ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo'yicha o'zaro integratsiyalashgan, geografik jihatdan yaqin joylashgan korxona va tashkilotlar majmuasi bo'lib, ular o'zaro raqobat va hamkorlik sharoitida faoliyat yuritadilar. Bunday klasterlar hududiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, meva-sabzavotchilik sohasida klasterlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi [3]. Shu bois, har bir hududning tabiiy sharoitlari, mehnat resurslari, infratuzilmasi va bozor

imkoniyatlari asosida klasterlashuvning hududiy xususiyatlarini aniqlash zarur.

Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavotchilik klasterlari rivojlanishining hududiy o'ziga xosligi asosan iqlim, yer resurslari va sug'orish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Viloyatning tog' etaklari va tog'oldi zonalarida sug'oriladigan maydonlarning nisbatan ko'pligi meva yetishtirish uchun qulay sharoit yaratadi [4, 6]. Aksincha, cho'l hududlarida suv resurslari cheklanganligi va yerlarning kam unumdorligi klasterlarni shakllantirishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Shuningdek, mehnat resurslarining mavjudligi va infratuzilma rivojlanishi ham klasterlarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, viloyatda meva-sabzavotchilik klasterlarini joylashtirish va rivojlantirishda hududiy imkoniyatlar va cheklavlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatidagi meva-sabzavotchilik klasterlari soni sakkizta bo'lib, ular viloyatning turli tumanlarida joylashgan. Klasterlar soni va joylashuvi viloyatning hududiy-iqtisodiy xususiyatlarini aks ettiradi va har bir tumanda agroklasterning rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Masalan, Yakkabog' tumanida uchta klaster faoliyat yuritayotgan bo'lsa, Kitob tumanida ham ikkita klaster mavjudligi qayd etilgan (jadval). Bu esa hududning meva-sabzavotchilik uchun qulay sharoitlari va infratuzilma imkoniyatlariga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Qamashi va Shahrisabz tumanlarida ham yirik klasterlar mavjudligi, viloyatning bu hududlarida meva-sabzavotchilikning barqaror rivojlanayotganligini ifodalaydi.

Klasterga birlashtirilgan fermer xo'jaliklari soni klasterning hududiy qamrov doirasini aks ettiradi. Eng ko'p fermer xo'jaliklari "AGRO-VOSTOK" MCHJ (Qamashi tumani) klasteriga birlashtirilgan bo'lib, ularning soni 170 tani tashkil qiladi. Bu klasterning keng hududga xizmat qilishi va ko'p fermerlarni birlashtirish imkoniyatiga ega ekanligini bildiradi. Boshqa tomondan, "SHAROFAT ONA QAHRAMON QIZI" agrofirma (Kitob tumani) va "SHAHRISABZ TOMORQA XIZMATI" MCHJ kabi klasterlarda fermer xo'jaliklari soni nisbatan kamroq (mos ravishda 51 va 9 ta). Bu klasterlar ko'proq ixtisoslashgan yoki kichikroq hajmdagi klasterlar sifatida qaralishi mumkin. Yakkabog' tumanidagi "GREEN ATR RLASTER" va "ARSENAL NUR BARAKA" MCHJ klasterlari o'rtacha fermerlar soniga ega bo'lib, ular hududiy miqyosda o'z o'rniga ega.

Klasterga birlashtirilgan umumiy yer maydoni esa klasterning yer resurslari salohiyatini ko'rsatadi. Eng katta yer maydoniga ega klaster "AGRO-VOSTOK" MCHJ bo'lib, uning hududi 1071 gektarni tashkil qiladi. Bu klasterning hududiy kengligi va yer resurslaridan samarali foydalanilayotganligini anglatadi. Fermer xo'jaligiga birlashtirilgan yer maydoni esa klasterning yer resurslarini fermerlar o'rtasida taqsimlanishining o'ziga xosligini ko'rsatadi. "AGRO-VOSTOK" klasterida fermer xo'jaligiga o'rtacha 9 gektar yer birlashtirilgan bo'lsa, bu maydon klasterning keng ko'lamdagi va ko'p fermerlarga mo'ljallanganligini ifodalaydi.

Qashqadaryo viloyati meva-sabzavotchilik klasterlari haqida ma'lumot

№	Klaster nomi	Joylashgan tumani	Klasterga birlashtirilgan fermer xo'jaliklari soni	Klasterga birlashtirilgan umumiy yer maydoni, ga	Shundan	
					klasterga, ga	fermer xo'jaligiga, ga
1	"Agro-vostok" MCHJ	Qamashi	170	1071	9	1062
2	"Sharofat ona qahramon qizi" agrofirma	Kitob	51	605	-	605
3	"Shahrisabz tomorqa xizmati" MCHJ	Kitob	9	93	-	93
4	"Abdul ahad ahmedovich" f/x	Yakkabog'	-	556	-	-
5	"Green atr klaster" MCHJ	Yakkabog'	11	91	14	77
6	"Arsenal nur baraka" MCHJ	Yakkabog'	18	174	-	174
7	"Bog'izar varganza uzumzorlari" MCHJ	Shahrisabz	27	474	73	401
8	"Marble industry kitob" MCHJ	Chiroqchi tumani	23	666	24	642

Jadval agro.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

"MARBLE INDUSTRY KITOB" MCHJ (Chiroqchi tumani) klasteri ham katta yer maydoniga ega bo'lib, 666 gektar yer maydonini egallaydi, bu viloyatning tog' oldi hududlarida meva-sabzavotchilik rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. "ABDUL AHAD AHMEDOVICH" fermer xo'jaligining 556 gektar yer maydoni mavjudligi alohida qayd etilgan, lekin klaster sifatida emas, individual fermer sifatida ko'rsatilgan. Qolgan klasterlar esa o'rtacha yoki kichik yer maydonlariga ega bo'lib, ular kichikroq yoki ixtisoslashgan hosil yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

"GREEN ATR RLASTER" klasterida fermer xo'jaligiga yer maydoni 14 gektar bo'lib, bu hududdagi fermerlarning nisbatan katta yerga ega ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, "SHAHRISABZ TOMORQA XIZMATI" MCHJ kabi klasterlarda fermer xo'jaligiga birlashtirilgan yer maydoni mavjud emasligi, ehtimol, bu yerlarning markazlashtirilgan boshqaruv yoki boshqa shaklda foydalanilayotganligini anglatadi. Bundan tashqari,

“BOG’IZAR VARGANZA UZUMZORLARI” MCHJ klasterida fermer xo‘jaligiga o‘rtacha 73 gektar yer taqsimlangan, bu esa juda katta maydon hisoblanib, bu klasterning ixtisoslashuvi yoki yetishtirish usulining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Qashqadaryo viloyatining tekislik rayonlarida meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu kunda tog‘oldi va tog‘ etaklari hududlarida klasterlar nisbatan rivojlangan bo‘lsa-da, tekislik zonalarida tabiiy resurslar va sug‘oriladigan yerlar potensialidan samarali foydalanish uchun yangi klasterlarni barpo etish lozim [7, 9]. Buning uchun yer maydonlarini qayta tadqiq etish, suv ta‘minoti tizimini takomillashtirish, zamonaviy agrotekhnologiyalarni joriy qilish orqali tekislik rayonlarining meva-sabzavotchilik salohiyatini oshirish muhimdir. Bu nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirish, balki hudud iqtisodiyotining barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilishni rivojlantirish orqali viloyatda qo‘shimcha qiymat yaratish mumkin. Klasterlar faoliyatini kengaytirishda qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, zamonaviy saqlash va logistika markazlarini qurish orqali mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish lozim [8]. Bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytiradi, milliy valyuta tushumlarini oshiradi va ichki bozorni yangi turlar bilan ta‘minlaydi. Shu bilan birga, mahsulotni qayta ishlash

sohasida investitsiyalarni jalb qilish va xorijiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bo‘sh ish o‘rinlarini yaratish meva-sabzavotchilik klasterlarining ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Yangi klasterlar va qayta ishlash korxonalari tashkil qilinishi natijasida ko‘plab mahalliy aholi, xususan yoshlar va ayollar bandligini ta‘minlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirib, hududlarda qashshoqlik darajasini pasaytirishga yordam beradi. Shu bois, viloyat hokimligi va tegishli vazirliklar tomonidan klasterlarni rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy va konsultativ yordam ko‘rsatish, kasbiy tayyorlov va malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatidagi meva-sabzavotchilik klasterlari tarkibida yer maydoni va fermerlar soni bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Bu hududiy imkoniyatlar, tabiiy sharoitlar, fermerlarning qishloq xo‘jaligidagi tajribasi va klaster boshqaruvi shakllari bilan bog‘liq. Viloyatdagi klasterlarning katta qismi fermerlar soni va yer maydonining turlicha taqsimlanishiga ega bo‘lib, ular iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, har bir klasterning o‘ziga xos hududiy xususiyatlari, fermerlarning yer maydoni hajmi va tashkil etilish shakli, Qashqadaryoda meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishda individual yondashuvni talab qiladi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ4947-сонли Фармони; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Мирзиёев Ш.М. Мева-сабзавотчилик тармоғини янада ривожлантириш ва экспортини ошириш, аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишни таъминлаш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши. 05.11.2019. www.xabar.uz.
3. Бердиев А.Х., Расулов Х.К. Современный экономический механизм развития сельского хозяйства. // Вестник науки и образования, 2020, (5-1 (83)), - С. 41-45.
4. Бердиев А.Х. Перспективы деятельности кластера в сельскохозяйственной сфере: проблемы и решения. Электронное научно-практическое периодическое издание. // «Экономика и социум». № 12 (115). Декабрь, 2023.
5. Классификация туристических кластеров / «Все о туризме – туристическая библиотека». – Режим доступа: http://tourlib.net/statti_tourism/bakumenko.htm.
6. Yakhshiboev B.A. Main directions of cluster development in Uzbekistan. // Электронное научно-практическое периодическое издание. «Экономика и социум». №9 (124). 2024.
7. Yakhshiboyev B.A. Agroklastarlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi / Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: Raqamli iqtisodiyot va gis texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi I-qism 2024 yil 25-26-oktabr. 361-364-b.
8. Yakhshiboyev B.A. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari Образование наука и инновационные идеи в мире. // Международный научный электронный журнал. Выпуск журнала №-52 Часть 3. Сентябрь, 2024.
9. Fayzullayev M.A. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi geografiyasi. Monografiya. – Toshkent: «Kitob bilim yog‘dusi», 2024.
10. <https://www.fao.org/agrifood-economics/publications/detail/en/c/1132943/>

REZYUME. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavotchilik klasterlari rivojlanishining hududiy xususiyatlari iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqotda klasterlashuv jarayonining mintaqaviy omillarga bog‘liqligi, tabiiy-iqlim sharoitlari, sug‘oriladigan yerlar salohiyati, mehnat resurslari va infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasi inobatga olingan. Shuningdek, mavjud meva-sabzavot yetishtirish bazasiga asoslanib klasterlar faoliyatining hududiy differensiallashuvi ko‘rsatib berilgan. Maqolada Qashqadaryo viloyatining tog‘li hududlari (Yakkabog‘, Kitob, Shahrisabz) va tekislik mintaqalari (Mirishkor, Nishon, Muborak) o‘rtasidagi klasterlashuv imkoniyatlaridagi tafovutlar asoslab berilgan. Natijada, viloyatda meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, iqtisodiy samaradorlik va hududiy ixtisoslashuvni kuchaytirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье проанализированы территориальные особенности развития плодовоовощеводческих кластеров в Кашкадарьинской области с экономико-географической точки зрения. В исследовании учитывалась зависимость процесса кластеризации от региональных факторов, природно-климатических условий, потенциала орошаемых земель, уровня обеспеченности трудовыми ресурсами и инфраструктурой. Также показана территориальная дифференциация деятельности кластеров на основе существующей базы плодовоовощеводства. В статье обоснованы различия в возможностях кластеризации между горными районами Кашкадарьинской области (Яккабаг, Китаб, Шахрисабз) и равнинными районами (Миришкор, Нишан, Мубарак). В результате разработаны современные подходы к организации плодовоовощеводческих кластеров в регионе, механизмы повышения экономической эффективности и территориальной специализации.

SUMMARY. This article analyzes the territorial features of the development of fruit and vegetable clusters in the Kashkadarya region from an economic-geographical point of view. The study took into account the dependence of the clustering process on regional factors, natural-climatic conditions, the potential of irrigated land, the level of employment resources and infrastructure provision. It also shows the territorial differentiation of cluster activities based on the existing fruit and vegetable cultivation base. The article substantiates discrepancies in the possibilities of clustering between the mountainous regions of the Kashkadarya region (Yakkabog, Kitab, Shahrisabz) and the Plains regions (Mirishkor, Nishan, Mubarak). As a result, modern approaches to the organization of fruit and vegetable clusters, mechanisms for strengthening economic efficiency and territorial specialization have been developed in the region.